

"O'zkimyosanoat" tarmoq korxonalari yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yimoqda

// 13.11.2024

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-tarmoq-korxonalari-yangi-turdagi-mahsulotlar-ar->



O'zbekistonda 2024-yilning dastlabki olti oyida mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarish 34 foizga o'sdi.

"O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarida ham ishlab chiqarishda qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish, ichki tarmoq va tarmoqlararo kooperatsiyani kengaytirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va turlarini ko'paytirish yuzasidan amaliy harakatlar olib borilmoqda.

Xususan, Jamiyatning Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2024-yilning yanvar-sentyabr oylarida 2 788,9 mlrd so'mlik (*o'sish 128,1 foiz*) mahsulotlar ishlab chiqarilib, reja ko'rsatkichlari 112,9 foizga bajarildi.

Dastur doirasida "Chirchiq kimyo-industrial texnoparki" MCHJ hududida yuqori bosimli laminat, tibbiy simulyator, "Chemistry International" MCHJda paxta sellyulozasi, gidroksipropilmetilsellyuloza (NRMS), "Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals" AJda kaliy sulfati, ammoniy xlorid, sulfat kislotasi, "Maxam-Chirchiq" AJda past haroratli vanadiyli katalizator, o'rta haroratli katalizator (STK) kabi qo'shimcha mahsulotlar ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, "O'zkimyosanoat" AJ va "Navoiyazot" AJ mutaxassislari tashabbusi bilan "Navoiyazot" AJ hududida yangi turdagi koagulyant "polimer holatdagi temir sulfat" mahsuloti o'zlashtirildi. Natijada xorijdan keltirilayotgan mahsulotlar mahalliyashtirilib, 3 mlrd 440 mln so'm mablag' tejaldi. Ushbu kimyoviy reagent korxonaning oqava suvlarini tozalash koagulyanti sifatida qo'llaniladi.

Mazkur mahsulot kelgusida viloyatdagi yirik sanoat korxonalariga ham yetkazib beriladi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati